ONA TILI DARS JARAYONIDA MATN USTIDA ISHLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Mamajonova Dilfuza
Yangiqo'rg'on tuman 1-son kasb-hunar maktabi ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ona tili darslarida matn ustida ishlash ko'nikmalarini shakllantirish xususidagi fikrlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *nutq madaniyati, gap, matn tarkibi, matndagi gaplarni ajratish, yosh xususiyatlari, nutq rivoji.*

Insoniyatning ijtimoiy siyosiy taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan ilmiy manbalarni avlodlarga meros qilib qoldirish uchun birdan – bir imkoniyat – matn va yaratish ilmi bilan shug'ullanishdir. Demak til imkoniyat, matn esa natijadir; matn egallagan bilim, ko'nikma va malakalar hosilasi. "Zero, mustaqil yaratilgan matn – o'quvchi tafakkuri qobiliyatining voqealanishi, tugal bir mazmunning o'quvchi tomonidan kashf etilishi, uni yuzaga chiqishidir".[1] Ona tili ta'limida matn yaratish va matn ustida ishlash usullari bag'oyat xilma – xil.

1. Berilgan matndan o'rganiladigan mavzuga oid so'zlarni ajratish, ularni so'z turkumlari bo'yicha guruhlash, so'z yasovchi, so'z o'zgartiruvchi, shakl yasovchi qo'shimchalarni guruhlash.
2. Matndagi sodda gaplardan qo'shma gaplar hosil qilish, qo'shma gaplarni soddalashtirish.
3. Ajratilgan sodda qo'shma gaplarni sintaktik tahlil qilish.
4. She'riy yo'l bilan yozilgan asarlarni nasriy yo'l bilan gapirib berish.
5. Matndagi qo'shma gaplarni ajratish, turlarini aniqlash.

O'quvchilarda matn ustida mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirish uchun o'qituvchi tomonidan tavsiya qilinadigan tayyor matnlar 5 – 9 sinflar uchun ona tili o'quv dasturi talabi asosida tanlanadi. Matnning turini aniqlash, qaysi uslubga xosligini aniqlash, matndagi tinish belgilarini to'g'ri va o'rinli qo'llash ko'nikmalari shakllantiriladi.

Matnni kengaytirish – bu matnga epigraf tanlash, maqol, hikmatli so'zlar, iboralar tasviriy ifoda bilan boyitish, ilmiy matnni badiiy matnga aylantirish aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol, ega kesimlardan samarali foydalanish kerak; (So'z va gap kengaytiruvchilar)[2]

Matnni ixchamlash – bunda matn mazmunini o'zgartirmagan holda, matnni takrordan tozalash, xatolarni bartaraf etish matn mazmuniga mos kelmaydigan kiritmalardan voz kechish, ularni kamaytirish, abzaslarni birlashtirish kerak.

Matnni davom ettirish – kirish qismi berilgan matnni davom ettiriladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilar matn ustida ishlash va matn yaratish jarayonining o'zaro aloqadorlikka erishish, gazeta, jurnal, badiiy va ilmiy adabiyot manbalari, kompyuter, internet tizimi, saqlanayotgan axborotlar mavzuga oid

ma'lumotlaridan foydalanishga odatlantirish kerak. Matnni imloviy, uslubiy nuqsonlarini topish, ularni mustaqil bartaraf etishni o'rganish kerak.

O'quvchilarning nutq madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish umumta'lim maktablari ona tili darslarining asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqsad sari eltadigan usullar sirasiga badiiy asarlardan olingan ayrim gaplar, kichik parchalar ustida olib boriladigan ishlar ham kiradi. Bunday misollar bilan ishlash metodikasi esa qator o'ziga xosliklarga ega. Bu o'ziga xoslik bir jihatdan ularni idrok etish bilan bog'liq. Ona tili darslarida o'quvchilarning badiiy asarni badiiy idrok etish, shu orqali olam haqida, voqea-hodisalar to'g'risida obrazli fikr yuritish ko'nikmalari badiiy asarlardan keltirilgan illustrativ materiallar asosida muvaffaqiyatliroq shakllantirilishi mumkin.

Berilgan matndagi gaplarni ajratish. O'rta maktablarning V – VI sinflarida, ayniqsa boshlang'ich sinflarda matnni gaplarga ajratish usuli samarali foydalaniladi. O'quvchi berilgan matnda tinish belgilar tushib qoldirilgan gaplarni aniqlaydilar, har bir gapning nisbiy tugallangan mazmunga ega bo'lishini anglab oladilar. Shuningdek, gap tuzishga, har bir gapning qanday gap ekanligini ajratishga odatlanadi. Ularda qanday tinish belgilar qo'yilishini bilib oladilar. Hatto so'z va gaplarni bir-biridan farqlaydilar. Berilgan so'zlar yordamida gap tuzishga o'rganadilar. Masalan: V sinf «Ona tili» darsligida 17- dars gap mavzusini o'rgatishga qaratilgan. Darslikda berilgan 60-61-62 mashqlar o'quvchilarni gap tuzishga, so'z va gapning farqini ajratish, hatto bitta so'zdan ham gap haqida dastlabki nazariy ma'lumotlar berishda berilgan matn tarkibidagi har bir gapni aniqlash, qanday tinish belgilar qo'yilishi anglab olish lozim bo'ladi. Bu esa o'quvchilarni avvaldan nutqida qo'llanib yurgan gaplarga xos sintaktik qonuniyatlarni anglab olishga yaqindan yordam beradi. Hatto matn yaratish jarayonida olingan nazariy bilimlarni amaliy qo'llashiga, yozma nutqining ravon bo'lishiga o'z ijobiy ta'sirini yetkazadi. Masalan: V sinfda «Ko'chirma gap» mavzusini o'qitishda o'quvchilarga avvalo og'zaki matn yaratish keyin esa yozma dialogik matn yaratish topshiriladi. Bu esa ularning og'zaki nutqidagi har qanday fikrni yozma bayon qila olish malakasini shakllantiradi. Umuman, matn ustida ishlash o'rta maktablarda keng yo'lga qo'yilgan bo'lib, ulardan samarali foydalanish o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqlarining ravon bo'lishlarini ta'minlaydi. O'quvchilarni mustaqil fikrlashga va o'z fikr mahsulini og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri va ravon bayon qila olishga o'rgatish ona tili o'qituvchilari oldida turgan eng dolzarb masaladir. Demak, bu kabi ma'suliyatli ishlarni amalga oshirish maqsadida DTS va darsliklarda bir qancha talablar va topshiriqlar berilgan. Har bir sinfda o'quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqib talablar belgilab qo'yilgan. Jumladan, V sinf ona tili darsligida ham gap tuzishga o'rgatishga bag'ishlangan topshiriqlarni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin.

- berilgan so'z, tayanch tushuncha, so'z birikmasi, tasviriy ifoda va iboralardan foydalanib gap tuzish.
- berilgan andozaga qarab gap tuzish;
- berilgan mavzuli rasmlar asosida gap tuzish;

- o'qituvchi tomonidan yoki darslikda tavsiya qilingan mavzuga doir gap tuzish kabi. Ona tilining izchil kursini o'rganish jarayonida gap ustida ishlash va gap tuzish berilgan barcha mashg'ulotlarni tarkibiy qismini tashkil etadi. Demak, V sinf «Ona tili» darsligida berilgan sintaksis va punktuatsiya bo'limining maqsadi ham shu masalani o'rgatishga qaratilgan. Darslikda berilgan gap, gapda so'zlarning bog'lanishi, gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari, gap bo'laklari, qo'shma gap, ko'chirma gap va ularda tinish belgilarning ifodalanishi kabi mavzular shular jamlasidandir.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, birinchi Prezidentimiz Islom Karimov an'anaviy ta'lim tizimi haqida to'xtalar ekan, "Maktablarimizda bolalar mustaqil fikrlashga o'rgatilmasligi, ta'lim jarayonida o'quvchi passiv tinglovchi, o'qituvchi faol ishlovchi, hukmron ekanligini" – [2] qattiq tanqid ostiga oldi. Umumiy o'rta ta'lim bitiruvchilariniтg erkin fikrlashi, mustaqil matn yaratish malakalari sifati va darajasi ona tilidan DTSlari talabiga javob beradimi? Bu borada ilg'or pedagogik texnologiyalaridan foydalanish qanday?" degan savollari bugun yangi ta'lim dasturlari asosida o'z yechimini yopmoqda. Mustaqil yaratilgan matn – o'quvchining imlo savodxonligi ijodiy tafakkuri, so'z boyligini, nutqiy salohiyatini, qolaversa, o'quvchi mahoratini namoyish etuvchi – ko'zgudir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I.A.Karimov: "Ta'lim tizimini rivojlantirish" nutqidan. Toshkent – 2007.
2. Rajapova Kumush. O'quvchilarni matn ustida ishlash va gap tuzishga o'rgatish. QQDU "O'zbek filologiyasi" kafedrasi o'qituvchisi.
3. Ziyodova T.U. "Matn yaratish texnologiyasi". Toshkent – 2007. Fan nashriyoti.
4. M.Qurbonov: R.Sayfullayeva: "O'zbek tili struktual sintaksisi". Toshkent – 2004.